



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 16-may, № 95 (8718)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



“COCA-COLA” KOMPANIYASINING ISTIQBOLLI LOYIHALARI QO'LLAB-QUVVATLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-may kuni “Coca-Cola” kompaniyasi raisi va bosh direktori Jeyms Kuinsini qabul qildi. Uchrashuvda “Anadolu Group” kompaniyasi raisi Tunjay O'zilxon ham ishtirok etdi.



“Coca-Cola” alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi eng yirik kompaniyalardan biri bo'lib, faoliyati 200 dan ortiq mamlakatlarda bozorini qamrab oladi, 200 dan ziyod brend va 950 dan ortiq ishlab chiqarish korxonalariga ega.

Kompaniyaning O'zbekistondagi eksklyuziv hamkori — “Coca-Cola Içecek” Turkiyaning “Anadolu Group” tarkibiga kiradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda kompaniyaning Toshkent, Urganch va Namangan

viloyatidagi 3 ta zavodi faoliyat yuritmoqda. Uchrashuvda oziq-ovqat sohasidagi, shu jumladan, “yashil” yechimlarni, energiya va suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo'yicha hamkorlikning ijobiy sur'ati qayd etildi. Kuni

kecha Samarqand viloyatida yangi korxonani ishga tushirildi. 2025-yilda Namangan viloyatida beshinchi zavod foydalanishga topshiriladi. Innovatsion faoliyat va tadqiqotlarni rivojlantirish, muhandislar va soha

mutaxassislarini tayyorlash muhimligi ta'kidlandi. Investitsiya dasturini yanada kengaytirish, mahsulot turlarini ko'paytirish, materiallar va butlovchi qismlarni ishlab chiqarish yuzasidan kelishuvlarga erishildi. Davlatimiz rahbari istiqbolli loyihalarni

jadallik bilan amalga oshirish bo'yicha alohida “Yo'l xaritasi”ni qabul qilishni topshirdi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

ZAMONAVIY XATAR VA TAHDIDLARGA QARSHI KURASHISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

15-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qaytganlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish masalalari bo'yicha Mintaqaviy ekspertlar kengashining birinchi yig'ilishida ishtirok etish uchun mamlakatimizda bo'lib turgan BMT Bosh kotibining o'rinbosari — Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi rahbari Vladimir Voronkovni qabul qildi.

Uchrashuv avvalida Vladimir Voronkov davlatimiz rahbariga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrishning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekistonning BMT institutlari va tuzilmalari bilan, eng avvalo, terrorizm va boshqa transmilliy xatar va tahdidlarga qarshi kurash sohasidagi amaliy hamkorligini yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi faoliyatini qo'llab-quvvatlagani uchun mamlakatimiz rahbariga minnatdorlik izhor etib, Vladimir Voronkov Mintaqaviy ekspertlar kengashini tashkil etish tashabbusi amalga oshirilgan uchun O'zbekiston tomoniga alohida tashakkur bildirdi. Toshkent shahrida bo'lib o'tgan ushbu noyob mexanizmning birinchi yig'ilishi muvaffaqiyatli yakunlangani ta'kidlandi.

BMT Bosh kotibining o'rinbosari, shuningdek, O'zbekistonning mojarolar hududlaridan fuqarolarni qaytarish, ularni reabilitatsiya qilish va jamiyatga qayta integratsiya qilish, jumladan, bunda mahalla institutining keng imkoniyatlari va salohiyatidan foydalanish bo'yicha sa'y-harakatlarini yuqori baholadi.

O'zbekiston va BMT Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi o'rtasidagi hamkorlikning yangi yo'nalishlarini nazarda tutuvchi 2024-2025-yillarga mo'ljallangan yangilangan “Yo'l xaritasi” imzolangan mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yoshlarni ekstremizm va terrorizm g'oyalari buzg'unchi ta'siridan himoya qilish, kadrlar tayyorlash sohasida hamkorlikni kengaytirish va BMT institutlarida yosh mutaxassislar uchun stajirovkalar tashkil etishga qaratilgan qo'shma tadbirlarni o'tkazish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Afg'oniston masalasi yuzasidan fikr almashildi. Bu mamlakatdagi vaziyatga xalqaro e'tiborni kuchaytirish, afg'on xalqiga gumanitar yordam ko'rsatishni davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

O'ZA.

Muloqot

QIZG'IN MUZOKARALAR, KONSTRUKTIV TAKLIFLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi taklifiga asosan Samarqand shahrida tashkil etilgan “Xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga mintaqaviy yondashuv” mavzuidagi Osiyo xotin-qizlari forumi yuqori saviyada bo'lib o'tdi. Uning doirasida parlamentimiz yuqori palatasi Raisi qator nufuzli mehmonlar bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

Xususan, O'zbekiston Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva BMT Bosh kotibi o'rinbosari, “BMT-Ayollar” tuzilmasi ijrochi direktori Sima Sami Baxus bilan uchrashdi.

Uchrashuvda “BMT-Ayollar” tuzilmasi bilan hamkorlikda gender tenglikni ta'minlash hamda xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida olib borilayotgan keng ko'lami islohotlar va ularning amaliy natijalariga e'tibor qaratildi.

S. Baxus xonim Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida

bildirgan takliflari asosida o'tkazilgan Osiyo xotin-qizlari forumi yuqori saviyada tashkil qilinganini ta'kidladi va uni har ikki yilda O'zbekistonda o'tkazish to'g'risidagi taklifni to'liq qo'llab-quvvatladi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda xotin-qizlarning mehnat huquqlari, ularning tadbirkorlik faoliyati qo'llab-quvvatlanayotgani, bu yo'nalishda ayollarga keng ko'lami imtiyozlar yaratib berilayotgani tahsinga loyiq ekani qayd etildi.



TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMI 2024-yil 2-3 may

TASHKENT INTERNATIONAL INVESTMENT FORUM May 2-3, 2024



YANGI O'ZBEKISTON —

INVESTORLAR UCHUN ISHONCHLI MAMLAKAT

Har qanday ishga kirishish uchun, avvalo, moliyaviy asos dardor. Biznes-g'oya yoki loyiha rejasi qanchalik puxta o'ylangan va hisob-kitob qilingan bo'lmasin, u moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanmas ekan, qog'ozda qolib ketaveradi.

Bu qoida Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari asosida olib borilayotgan yangilanish jarayonlariga ham taalluqli. Belgilangan maqsadlarga erishishda zarur kapital qo'yilmalar iqtisodiyot va infratuzilmalarni jadal sur'atlar bilan modernizatsiya qilish imkonini bermoqda. Shu bois davlatimiz rahbari yangi O'zbekistonni bunyod etish uchun eng muhim zaxira manbai bo'lmish investitsiyalarga alohida

Mushohada

Aniq ustuvorliklar, muayyan takliflar

Toshkent xalqaro investitsiya forumi singari tadbirlar ko'p mamlakatlarda o'tkaziladi. Lekin

hammasida ham davlatning birinchi rahbari qatnashmaydi va so'zga chiqmaydi. Shu bois Shavkat Mirziyoyevning nutqi xorijiy sarmoyadorlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ular buni

alohida hurmat va mehmondo'stlik belgisi, deb qabul qildi. Buning ustiga ishbilardon doiralari vakillari vaqt qadri juda yaxshi bilgan holda oliy martabali rahbar kundalik o'ta muhim ishlaridan ortib ularga ham

vaqt ajratgani, e'tibor qaratgani tufayli juda minnatdor bo'lishdi. Investorlar kerakli ma'lumotni mamlakat Prezidentining nutqidan olishi ular uchun to'liq ishonch kafolati sifatida muhim.

Ushbu nufuzli tadbir ishtirokchilari e'tirof etganidek, O'zbekiston rahbarining chiqishi ularida katta taassurot qoldirdi.

Birinchiidan, Toshkent xalqaro investitsiya forumi yaxshi an'angaga aylanib borayotgani va har yili barcha qit'adan yangi-yangi hamkorlarni mamlakatimizga to'playotganini e'tirof etar ekan, davlatimiz rahbari bugungi anjuman global geosiyosiy va iqtisodiy muammolar avj olayotgan, barqaror rivojlanish yo'lida xavf va tahdidlar kuchayib borayotgan davrga to'g'ri kelayotganini ham

aytib o'tdi. Xususan, O'zbekiston Prezidenti so'zlariga ko'ra tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, xalqaro savdoning pasayishi, investitsiya oqimlarining kamayishi, iqlim ofatlarining kuchayishi vaziyat naqadar beqaror va qaltis ekanini yaqqol ko'rsatmoqda. Shunday ekan, hech bir davlat zamonaviy dunyoning bunday o'tkir muammolari bilan yakka holda kurasha olmaydi. Va har bir mamlakat uchun xorijiy investitsiyalar oqimi alohida ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar bilan bog'liq tendensiyalar esa kutilgan umidlarni oqlamayapti — o'tgan yili rivojlanayotgan davlatlarga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmi 9 foizga kamaydi.



QIZG'IN MUZOKARALAR,
KONSTRUKTIV TAKLIFLAR

O'z navbatida, mehmon O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollari muloqotini yo'lga qo'yishdagi tashabbusini, shuningdek, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasining barcha ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish borasidagi samarali faoliyatini yuqori baholadi.

Tomonlar Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi hamda "BMT-Ayollar" tuzilmasi o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandumni

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva Misr Arab Respublikasi parlamenti Senati Raisi o'rinbosari Fibi Favzi Girgis bilan uchrashdi. Muloqot chog'ida O'zbekiston va Misr hamkorligining keng doirasi, shu jumladan, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamda parlamentlararo aloqalari yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi. Suhbat jarayonida tomonlar forumda ko'tarilgan masalalar, xususan, xotin-

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Osiyo xotin-qizlari forumi doirasida Turkiya Respublikasining oila va ijtimoiy xizmatlar vaziri Mahinur O'zdemir Go'ktash bilan muzokara o'tkazdi.

Suhbat avvalida tomonlar O'zbekiston va Turkiya rahbarlarining qat'iy siyosiy irodasi tufayli ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar o'zaro ishonch asosida rivojlanib borayotganini alohida qayd etdilar. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ijtimoiy himoyasini

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Samarqand shahrida Qozog'iston Parlamenti Senati Raisi o'rinbosari Olga Perepechina hamda Qozog'iston Parlamenti Raisi o'rinbosari Daniya Yespayeva bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muloqotda keyingi yillarda mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar yuqori darajaga ko'tarilgan hamda barcha sohadagi aloqalar jadal rivojlanayotganini alohida qayd etildi.

Ayni chog'ida Markaziy Osiyo yetakchi

Osiyo xotin-qizlari forumi doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Qatar Davlati Maslahat kengashi raisining o'rinbosari Hamda bint Hasan al-Sulaytiy xonimni qabul qildi.

Uchrashuvda tomonlar O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi do'stona munosabatlar va sheriklik aloqalari jadal rivojlanib borayotganini, xususan, muntazam siyosiy maslahatlashuvlar yo'lga qo'yilganini e'tirof etishdi. Diplomatik aloqalar yangi bosqichga ko'tarilib, mamlakatimizda Qatar elchixonasi, Dohada esa O'zbekistonning diplomatik vakolatxonasi ochilganini ikki tomonlama

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Osiyo xotin-qizlari forumi doirasida Tojikiston Respublikasi Majlisi namoyandagani Majlisi Oli Raisi o'rinbosari Mavsuma Muini bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda tomonlar do'stona va samimiy ruhdagi ikki davlat hamkorligi natijasida ko'plab sohalar jadal rivojlanayotganini, ayniqsa, parlamentlararo aloqalar yangi bosqichga ko'tarilganini alohida ta'kidlab o'tishdi.

Shu bilan birga, Mavsuma Muini O'zbekiston tashabbusi bilan ilk marotaba tashkil etilgan Osiyo xotin-qizlari forumining

imzolash masalasini ko'rib chiqish hamda qo'shma "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish va tasdiqlash taraflari ekanligini bildiridilar.

"BMT-Ayollar" tuzilmasining xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirishda ko'maklashishga tayyorligi ma'lum qilindi.

Mamlakatimizda "BMT-Ayollar" tuzilmasining vakolatxonasini o'chirish masalasi ham diqqat markazida bo'ldi va kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

Do'stona va konstruktiv ruhdagi o'tgan uchrashuvda tizimli muloqotni davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini va innovatsion faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha tajriba almashish lozimligini alohida qayd etdilar. Ayniqsa, bunda qishloq joylardagi ayollarni qo'llab-quvvatlash muhimligiga urg'u berildi.

Shuningdek, sog'liqni saqlash, ilm-fan, ta'lim kabi sohalarida qo'shma loyihalarni amalga oshirishda parlamentlar imkoniyatidan foydalanishga kelishib olindi.

kuchaytirish, oila masalalarida sa'y-harakatlarni birlashtirish mavzularida ham o'zaro fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Turkiya Respublikasining Oila va ijtimoiy xizmatlar vazirligi o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash masalasi ko'rib chiqildi.

Bundan tashqari, muloqot davomida hamkorlik munosabatlarini kelgusida amaliy harakatlar bilan yanada boyitishga yo'naltirilgan rejalar yuzasidan fikrlashtirib olindi.

ayollari muloqoti mintaqaviy platformasi ishini yanada faollashtirish, O'zbekiston va Qozog'iston biznes doiralari, xususan, ishbiarmon xotin-qizlar o'rtasida faol hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida Tadbirkor ayollar forumini o'tkazish yuzasidan fikr almashildi.

O'z navbatida, har ikkala loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun parlamentlar o'ziga xos ko'priq vazifasini o'tashi lozimligi ta'kidlandi.

munosabatlar tarixida yangi sahifa ochdi.

Muloqot davomida ikki davlatning parlamentlararo munosabatlariga e'tibor qaratilib, parlamentlararo guruhlar va tegishli qo'mitalar o'rtasidagi muloqotni faol davom ettirish kabi masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Bundan tashqari, uchrashuvda ikki davlat parlamentlari vakillari xalqaro tashkilotlar doirasida hamda ikki tomonlama munosabatlarning boshqa yo'nalishlarida yanada faol hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish va o'zaro tajriba almashishga kelishib olindi.

ahamiyati va uning jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini ta'kidlab, albatta, ushbu forumda muhokama qilingan masalalar barcha davlatlar uchun samarali yechimlarni ishlab chiqishda dasturilamal bo'lishiga ishonch bildirildi.

Bundan tashqari, tomonlar ikki xalqning an'analari, urf-odatlari o'xshashligidan kelib chiqib, madaniy hamkorlikni rivojlantirishga e'tibor qaratdilar. Bu, o'z navbatida, o'zbek va tojik xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishda muhim vosita bo'lishi alohida qayd etildi.

"Xalq so'zi".

Munozaralar

MARKAZIY BANK HISOBOTI
DASTLABKI TARZDA KO'RIB CHIQLIDI

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasining kecha o'tkazilgan navbatdagi majlisida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobot dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Markaziy bank 2023-yildagi faoliyatini hozirda kuzatib kelinyotgan tashqi iqtisodiy nozaratchilik fonida global iqtisodiyotda yangi risklar vujudga kelayotgan va bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'siri ortib borayotgan bir sharoitda amalga oshirgan alohida qayd etildi.

Ushbu murakkab makroiqtisodiy jarayonlarning narxlar va bank tizimi barqarorligiga ta'sirini yumshatish maqsadida Markaziy bank tomonidan o'zaro muvofiqlashtirilgan pul-kredit hamda makroprudensial siyosat amalga oshirildi.

Inflyatsion kutilmalarning o'zgaruvchanligi yuqori bo'lganligi sababli Markaziy bank 2023-yilda qat'iy pul-kredit sharoitlarini saqlab qolgan. Markaziy bank tomonidan hisobot davrida uddalangan pul-kredit sohasidagi ushbu chora-tadbirlar inflyatsiya darajasining yuqori sur'atda o'sishini jilovlash imkonini berib, 2023-yil yakuni bo'yicha inflyatsiya darajasi 8,8 foiz atrofida shakllangan. Bunda bazaviy inflyatsiya ko'rsatkichi 2023-yil davomida 5,3 foiz

bandga pasayib, 8,5 foizni tashkil etdi. O'tgan yilning I choragidan boshlab inflyatsiya darajasining pasayish tendensiyasiga o'tganligi sababli 2023-yil mart oyidan asosiy stavka 15 foizdan 14 foizga pasaytirilgan.

Shuningdek, 2023-yil davomida 251,4 trln. so'm yoki 2022-yildagiga nisbatan qariyb 24 foizga ko'p kredit mablag'i ajratildi. Bu kredit mablag'laridan 160 trln. so'mlik qismi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga va 581 mingdan ortiq loyihalarga yo'naltirildi.

Aholining bank kartalaridan pul mablag'larining firlabgarlik yo'li bilan yechilishi kabi holatlarning oldini olishga qaratilgan xavfsizlik choralarini ham kuchaytirib borildi. Tadbir davomida Markaziy bankning 2024-yilgi faoliyatida amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalarga e'tibor qaratildi hamda Senatning galadagi yalpi majlisi muhokamasiga mazkur masalani kiritishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

YANGI O'ZBEKISTON

Shunga qaramay, O'zbekiston yetakchisi qayd etganidek, keyingi yetti-sakkiz yil davomida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilib, mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo'ldagi to'siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish uchun qat'iy qadamlar tashlandi. Natijada O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy sohada muayyan yutuqlarga erishdi.

Ushbu fikrlar tasdiqi sifatida Prezident bir qator dalil va raqamlarni keltirdi. Ya'ni so'nggi yillarda iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o'sdi. O'tgan yil yakuni bo'yicha bu o'sish 6 foizni tashkil qildi. Inflyatsiya 9 foizgacha pasaydi. Savdo aylanmasi ko'rsatkichlari muttasil oshmoqda. Valyuta bozori va oltin-valyuta zaxiralari barqarorligi saqlab qolinmoqda.

Bunga esa qator omillar tufayli erishildi. Jumladan, oxirgi yillarda mamlakatimizda 60 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlarining 14 milliard dollardan ortiq mablag'lari ijtimoiy va infratuzilma sohalariga jalb qilindi. O'tgan yilning o'zida xorijiy investitsiyalar hajmi qariyb ikki barobar ko'paydi. Dunyoning yetakchi kompaniyalari hamda yirik brendlari bilan 300 dan ortiq investitsiya va sanoat loyihalari ishga tushirildi.

Ikkinchidan, ushbu so'zlar Prezidentimiz tomonidan samimiy va to'liq mas'uliyat bilan aytiladi. Ular salohiyatli sarmoyadorlar uchun aniq chaqiriq bo'ldi. Zero, ko'pgina mamlakatlarning milliy iqtisodiyotida keyingi yillarda muayyan qiynchiliklar yuzaga kelganiga qaramay O'zbekiston barqaror iqtisodiy o'sishni namoyon etmoqda va investitsiyaviy jozibadorligini saqlab qolmoqda. Demak, agar sarmoyador o'zining mablag'lari "ishlab", daromad keltirishini xohlasa u bizning mamlakatimiz bilan hamkorlik qilishi, o'zining mablag'ini kiritishi mumkin va lozim.

Bunday qo'yilmalar uchun shart-sharoitlar ham doimiy ravishda takomillashtirilib, yaxshilanib bormoqda. Masalan, davlatimiz rahbari aytib o'tganidek, endi xorijiy investorlar uchun yil muddatga aksiyalardan oladigan dividendlari bo'yicha soliqlardan ozod etildi.

Prezident alohida qayd etganidek, asosiy maqsad — O'zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirish. Shu maqsadda davlat bozor munosabatlarini rivojlantirishni, investorlar huquqi ishonchli himoya qilinishini, qulay investitsiya va ishbiarmonlik muhitini yanada takomillashtirishni, halol raqobat uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratishni, xususiylar muvofiqlik va sud tizimining mustaqillik ta'minlanishini o'z zimmasiga oladi. Bu tamoyillar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda qat'iy muhrlab qo'yilgan.

Toshkent xalqaro investitsiya forumi ishtirokchilari uchun investorlar huquqlarini himoyasini kuchaytirishga qaratilgan bir qator aniq takliflar ham taqdim etildi. Xususan, Jahon savdo tashkiloti tartib-qoidalar va standartlariga muvofiq yangi tahrirdagi "Investitsiyalar to'g'risida"gi qonunni qabul qilish, Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi huzurida Xalqaro tijorat sudi faoliyatini tashkil etish, sanoat zonalarida muloqot yuzasida yondashuvlarni joriy qilish va

ularni boshqarishda xususiy operatorlar, jumladan, yuqori malakali xorijiy kompaniyalarni faol jalb etish, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat muddatlari bo'yicha cheklavlarni bekor qilish, xorijiy sarmoyadorlar uchun yerlarni ijaraga berish muddatini amaldagi imtiyoz va preferensiyalarni to'liq saqlab qolgan holda 25 yildan 49 yilgacha uzaytirish ko'zda tutilgan.

Shu va boshqa takliflar Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidan keyingi kun bo'lib o'tgan navbatdagi yig'ilish — Xorijiy investorlar kengashining ikkinchi yalpi majlisida batafsil muhokama etildi. Ularning ro'yogba chiqarilishi esa, shubhasiz, investorlarni O'zbekiston bilan hamkorlik qilishga rag'batlantiradi.

Uchinchidan, turli mamlakatlardan kelgan anjuman qatnashchilari e'tirof etishicha, O'zbekiston Prezidenti nutqida mamlakatning "O'zbekiston — 2030" strategiyasiga muvofiq rivojlanib borishining asosiy yo'nalishlari hamda investorlar kuch va mablag'lari jalb qilinishi bo'yicha asosiy ustuvorliklar aniq belgilab berildi. Davlat rahbari mamlakatning istiqbolidagi taraqqiyoti uchun juda muhim bo'lgan beshta ustuvor yo'nalishga to'xtalib o'tdi. Investorlar tomonidan bildirilayotgan qiziqish esa ularning sarmoya kiritish nuqtayi nazaridan jozibadorligini ko'rsatib turibdi.

Birinchidan, "yashil" energetika. Bu sohada allaqachon xorijiy sarmoyadorlar faol ish olib bormoqda. Masalan, o'tgan yilning o'zida strategik hamkorlar — "Masdar", "Gezhouba", "ChinaEnergy" kompaniyalari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan yirik shamol energiyasi stansiyalari va quvvati 1,4 gigavatt bo'lgan quyosh elektr stansiyalari ishga tushirildi. "ACWA Power" kompaniyasi bilan hamkorlikda esa "yashil vodurod" ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirish boshlandi. Yana o'ttizga yaqin loyihalar ro'yogba chiqarilish arafasida. Ularni bajarishga ko'plab sarmoyadorlar bosh qo'shgan. Shunday bo'lsa-da, sarmoya kiritib, undan foyda olish imkoniyati boshqa investorlarida ham bor. Axir O'zbekistonda 2030-yilgacha 20 gigavatt dan ortiq qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini yaratish va energetika balansida uning ulushini 40 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Ikkinchidan, "yashil" ham xorijiy investorlar uchun jozibador bo'lib, u bank-moliya sohasidir. Bunda keyingi yillarda mamlakatimizda ko'plab xususiy banklar, xorijiy banklarning filiallari va qator raqamli banklar ochilganiga qaramay, shu sohada faoliyat yuritadigan investorlar uchun keng imkoniyatlar mavjud. Xususan, forum doirasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan O'zbekistonning yirik banklaridan biri bo'lgan "Asaka" bankini xususiylashtirish bo'yicha bitim imzolandi. Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki bilan boshqa yirik banklarimizning transformatsiyasi va xususiylashtirish jarayonlari faol olib borilmoqda.

Uchinchidan, ko'pgina xorijiy sarmoyadorlar mamlakatimizning foydali qazilmalariga katta qiziqish bildirishadi. O'zbekiston — mineral resurslar va muhim metallarning katta bazasiga ega mamlakat. Yurtimizda oltin, mis, volfram, kumush,

uran konlari bor. Yana, Prezidentimiz e'tibor qaratganidek, zaminimizda noyob mineral bilan bir qatorda litiy, magniy, molibden, germaniy, vanadiy va indiy kabi 30 dan ortiq kamyoq metallarning zaxiralari mavjud. Yaqinda Yevropa Ittifoqi bilan o'ta muhim xomashyo sohasida strategik hamkorlik o'rnatildi. Prezidentimiz Amerika Qo'shma Shtatlari va Buyuk Britaniya bilan ham shunday bitim ustida ish olib borilayotganini e'lon qildi hamda strategik xomashyolarni chuqur qayta ishlash va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish uchun yetakchi kompaniyalarni O'zbekistonga taklif etdi.

To'rtinchidan, xorijiy



Prezident alohida qayd etganidek, asosiy maqsad — O'zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirish. Shu maqsadda davlat bozor munosabatlarini rivojlantirishni, investorlar huquqi ishonchli himoya qilinishini, qulay investitsiya va ishbiarmonlik muhitini yanada takomillashtirishni, halol raqobat uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratishni, xususiylar muvofiqlik va sud tizimining mustaqilligi ta'minlanishini o'z zimmasiga oladi. Bu tamoyillar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda qat'iy muhrlab qo'yilgan.

investorlar mamlakatimizning raqamli transformatsiyasida ham ko'maklashishi mumkin. Bu yo'nalishda muayyan ishlar olib borilmoqda. Jumladan, bir yilda IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti ikki barobar oshdi. Kelajakda bu ko'rsatkichni 5 milliard dollarga yetkazish reja qilingan. Shu bois xorijiy kompaniyalarni jalb etish uchun IT-park bazasida Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi tashkil qilinmoqda. Saudiya Arabistonining "Data Volt" kompaniyasi bilan hamkorlikda "yashil" energiyada ishlovchi Ma'lumotlar markazi barpo etilyapti. Bu O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tishi, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun kuchli turtki bo'lishi lozim.

Beshinchidan, "yashil" sifatida O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida transport infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Temir yo'l

transportini takomillashtirish, avtomobil va tezyurar poyezdlar uchun temir yo'llarni qurish bo'yicha qo'shma loyihalar, Toshkent, Buxoro va Urganchdagi xalqaro aeroportlarni rivojlantirish, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston va O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston temir yo'llarini qurish juda katta miqdordagi mablag'ni talab qiladi. Shu bois Markaziy Osiyoni Shimol va Janub, Sharq va G'arb bilan bog'laydigan global tranzit markaziga aylantirish bo'yicha strategik loyihalarga investitsiya kiritish foydali bo'lishi lozim.

Shavkat Mirziyoyev so'zining yakunida yana bir bor ta'kidladiki, investitsiyalar — bu mamlakatimiz transformatsiyasining



lokomotivi va iqtisodiy taraqqiyotimizning mustahkam drayveridir. Har bir tashabbus va loyihani ro'yogba chiqarishda sarmoyadorlarga davlatimiz, hukumatimiz a'zolari yaqindan ko'mak beradi.

Yirik korporatsiyalar va xalqaro tashkilotlar sarmoya kiritish uchun O'zbekistonga tashrif buyurayotganini ko'rgach, anglaysizki, bu mamlakatda ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilgan, — deya taassurotni bayon qiladi Saudiya Arabistonining "Vision Invest" investitsiya kompaniyasi prezidenti Omar Al-Midani. O'zbekistonga qadam qo'yish asnosida oldinda meni nimalar kutayotganini bilmasdim, zero, avvallari bu yerda hech bo'lmaganman. Barchasini o'z ko'zim bilan ko'rgach, hayron qoldim: O'zbekiston bunday mehmondo'st xalq yashaydigan qo'zal mamlakat ekanini tasavvur qilmagan edim. Shu qadar sarishta va xavfsiz. Shahar bo'yab sayr qilar ekansiz, mahalliy madaniyatni izrok etib, uni qadrlay boshlaysiz.

Shuningdek, mamlakat uzoqni ko'zlab boshqarilayotganiga tushunasiz. Maqsadga eltuvchi yo'nalishlar aniq. Rahbariyat va vazirlar bilan suhbatlashgan ko'yi xulosa yasaysiz: ular aynan siz kutgan, sizga ishonch bag'ishlagan sheriklar. Uzoq o'z mamlakatida nimalar qilish zarurligini tushunadiganlar toifasidan.

Xayrli maqsadlar uchun
milliardlar

Forum ishtirokchilari O'zbekiston Prezidentining nutqida eshitganlaridan tashqari, Shavkat Mirziyoyevning o'zi bilan bo'lgan uchrashuvlarda aniq dalillar bilan yanada batafsilroq tanishdi. Bunday uchrashuvlar xorijiy sarmoyadorlarni jalb etish ishidagi yanada muhim rol o'ynaydi. Negaki, ular davlatning birinchi rahbari bilan muloqotni ham o'zlarining faoliyatiga alohida e'tiborning namoyon bo'lishi, ham

O'zbekiston — Tojikiston:

IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR
YUQORI BOSQICHGA KO'TARILADI

Qolaversa, forum doirasida O'zbekiston parlamenti vakillari bilan o'tkazilgan ikki tomonlama hamkorlik uchrashuvlari parlamentlararo aloqalarimizni yangi bosqichga olib chiqishga ishonamiz.

Uchrashuvda qayd etilganidek, yaqinda O'zbekiston Prezidentining Tojikistonga tashrifi doirasida mamlakat Majlisi Namoyandagani Majlisi Oli Raisi Mahmadoir Zokirzoda bilan uchrashuvda parlamentlararo almashinuvni yanada faollashtirish, kooperatsiya loyihalari va madaniy-gumanitar dasturlarni qo'llab-quvvatlash va ilgari surish uchun sohaviy qo'mitalar va hududiy kengashlar darajasida samarali aloqalarni kengaytirish masalalari muhokama qilingan edi. Forum doirasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasida tashkil etilgan mazkur uchrashuv ikki tomonlama parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirish, istiqbolidagi rejalarini birgalikda muhokama qilish imkonini bergani ta'kidlandi.

Muloqot chog'ida delegatsiya a'zolariga "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani hayotga tatbiq etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar hamda quyi



palata faoliyati to'g'risida atroflicha ma'lumot berildi.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi Spikeri O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi munosabatlarga to'xtalib, ikki mamlakat rahbarlarining o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlari va qat'iy siyosiy irodasi tufayli qardoshlik rishtalari rivojida misli ko'rilmagan yutuqlarga erishilganini, xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning joriy yil aprel oyidagi Tojikiston Respublikasiga tashrifi chog'ida imzolangan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi bitimning ahamiyatiga to'xtalib o'tdi.

Uchrashuvda so'z olgan Tojikistonning O'zbekistondagi elchisi Abdujabbor Rahmonzoda birgalikdagi sa'y-harakatlar

bilan iqtisodiyot, savdo, transport-kommunikatsiya, energetika va tibbiyot sohalaridagi ikki tomonlama hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilganini e'tirof etdi. Shu kunlarda O'zbekistonda bo'lib o'tayotgan energetika haftaligida Tojikiston tomonining ishtirok etayotgani, qolaversa, shu yilning aprel oyida Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Onkurologiya bo'yicha Yevrosiyo ikkinchi forumida ham Tojikistonning 51 nafar soha shifokori qatnashgani barcha yo'nalishda o'rnatilgan o'zaro munosabatlarning yanada yaqinlashganidan dalolat ekanini ta'kidladi.

Konstruktiv ruhdagi o'tgan uchrashuvda O'zbekiston — Tojikiston parlamentlari o'rtasidagi do'stlik guruhlarini va tegishli qo'mitalarning muntazam yig'ilishlarini

O'zbekiston va Kipr TIV rahbarlari diplomatik pasport egalarni viza talablaridan ozod qilish bo'yicha bitimni imzoladi.

INVESTORLAR UCHUN ISHONCHLI MAMLAKAT

erishilgan kelishuvlarning amalga oshishi va o'q'lab-quvvatlanishi kafolati, deb hisoblaydi.

Forum arafasida va davomida davlatimiz rahbari xalqaro tashkilotlar va moliya muassasalarining vakillari bilan ko'plab uchrashuvlar o'tkazdi. Mazkur uchrashuvlar haqidagi xabarlar ham ko'rinib turibdiki, ularda investitsiyaviy hamkorlik va muayyan loyihalarga tegishli masalalar muhokama etildi.

Misol uchun, Shavkat Mirziyoyevning YETTB delegatsiyasi bilan uchrashuvda e'tirof etilishicha, bugungi kunda bankning mamlakatimizdagi loyihalari portfeli 4,4 milliard yevrodan ortiq, ulardagi xususiy sektor ulushi esa 70 foizga yaqinlashgan. O'zbekiston va YETTB o'rtasida yangi Hamkorlik strategiyasi qabul qilingan bo'lib, u kichik va o'rta biznes, xotin-qizlar tadbirkorligi, muqobil energetika, raqamli texnologiyalar va boshqa sohalarida hamkorlikning yo'nalishi va ko'lamini kengaytirishga qaratilgan. YETTBning faol ko'magi va besavita ishtirokida O'zbekistonda davlat korxonalarini xususiy lashtirishga tayyorlash bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda, "yashil" energetika, transport infratuzilmasi, ekologiya va boshqa ustuvor sohalariga tegishli me'yoriy-huquqiy baza takomillashtirilmog'da. Uchrashuvda O'zbekiston Prezidenti suv ta'minoti, energetika, yo'l infratuzilmasi, "yashil" shaharlarni rivojlantirish kabi yo'nalishlarda yangi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish muhimligini qayd etdi.

Qirg'iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi — Prezident Administratsiyasi rahbari Aqilbek Japarov bilan suhbatda O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish, savdo, sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport va logistika sohalarida hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashuvni faollashtirish masalalari ko'rib chiqildi. "Qambarota GES-1" va Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'lini qurish loyihalari amaliy jihatlariga alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz O'zbekiston Prezidenti Mikoyil Jabborov boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi. Unda ta'kidlanishicha, o'tgan yili O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi savdo aylanmasi 27 foizga, joriy yilning boshidan beri esa yana 15 foizga ortgan.

Avtomobilsozlik, energetika, qishloq xo'jaligi, elektrotexnika, to'qimachilik, turizm va boshqa sohalarida kooperatsiya loyihalari ro'yobga chiqarilmog'da. Shunday bo'lsa-da, loyihalar portfeli yanada kengaytirish muhimligi ta'kidlandi. Bu esa, jumladan, qo'shma investitsiyaviy kompaniya mablag'larini jalb etish orqali amalga oshirildi.

Saudiya Arabistoni energetika vaziri shahzoda Abdulaziz bin Salmon Ol Saud boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda ta'kidlanishicha, bugungi kunda qo'shma loyihalar portfeli 30 milliard dollardan oshdi. "ACWA Power" kompaniyasi mamlakatimizda energetika tarmog'ini rivojlantirishga eng ko'p investitsiya kiritgani aytib o'tildi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya energetika tarmog'ini rivojlantirishga eng ko'p investitsiya kiritgani aytib o'tildi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya energetika tarmog'ini rivojlantirishga eng ko'p investitsiya kiritgani aytib o'tildi.

Mamlakatimizning Birlashgan Arab Amirliklari bilan iqtisodiyotning ustuvor sohalaridagi hamkorligi ham jadal rivojlanmog'da. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BAA iqtisodiyot vaziri Abdulla bin Al Marriy boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida sheriklik jadal rivojlanayotgani, tovar ayirboshlash hajmi, qo'shma korxonalar va to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar soni oshib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari ishtirokidagi loyihalar portfeli 4 milliard dollarga yetdi. Energetika, transport, logistika, qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti va boshqa sohalarida yirik loyihalarni tezlashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Prezidenti O'mon Sultonligi savdo, sanoat va investitsiyalarga ko'maklashish vaziri Qays bin Muhammad al-Yusufni qabul qildi. Energetika, transport, sog'liqni saqlash, turizm, geologiya, oziq-ovqat, to'qimachilik, kimyo sohalarida, jumladan, O'zbekiston — O'mon investitsiya kompaniyasi ko'magida loyihalarni amalga oshirish uchun katta salohiyat borligi qayd etildi. Transafon temir yo'lini qurish hamda O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — O'mon transport yo'lagini barpo etish masalasini ilgari surish borasida ham fikr almashildi.

Prezidentimizning investitsiya forumida qatnashgan kompaniyalar rahbarlari bilan muloqotlari ham konstruktiv, aniq mazmunga boy bo'ldi. Masalan, Misrning "Orascom Investment

Holding" kompaniyasi rahbari Nagib Saviris bilan uchrashuvda asosiy e'tibor O'zbekiston iqtisodiyotining turli sohalarini, jumladan, tog'-kon sanoati, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, sayohat, qurilish, infratuzilmani rivojlantirish kabi yo'nalishlarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish masalalariga qaratildi. O'z navbatida, Nagib Saviris Misr investitsiyalarini mamlakatimiz iqtisodiyotiga yo'naltirish uchun barcha sa'y-harakatga tayyorligini bildirdi.

Shavkat Mirziyoyevning "Suez", "Arsenale Group", "Airbus", "Linde" kabi yetakchi kompaniyalar rahbarlari bilan uchrashuvda investitsiyaviy va innovatsion hamkorlikning istiqbollari, shuningdek, suv ta'minoti, fuqaro aviatsiyasi, qurilish materiallari ishlab chiqarish, turizm va boshqa sohalarida muayyan loyihalarni ro'yobga chiqarish istiqbollari ko'rib chiqildi. Yevropa biznes vakillari bundan keyin ham O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida muhim loyiha va dasturlarni amalga oshirishda qatnashishga tayyorliklarini bildirishdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev forum doirasida Xitoyning yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan ham uchrashuv o'tkazdi. Jumladan, "CAMCE" korporatsiyasi raisi bilan Toshkent shahrida Olimpiya shaharchasi qurilishi hamda energetika, sanoat va infratuzilma sohalaridagi loyihalar portfeli kengaytirish masalalari muhokama qilindi. "Goldwind" kompaniyasi prezidenti bilan kompaniyaning O'zbekistonda "yashil" energetikani rivojlantirishdagi ishtiroki istiqbollari ko'rib chiqildi, shamol elektr stansiyalari qismlarini ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish va joriy loyihalarni jadallashtirishga kelishib olindi. "China Southern Power Grid" bilan Buxoro viloyatida shamol elektr stansiyalari, butun mamlakat bo'yab gidroakkumulyatsiya stansiyalari va yuqori kuchlanishli liniyalari qurish loyihalari muhokama qilindi. O'zbekistonda elektr hisoblagichlar ishlab chiqarish bo'yicha "Holley Group" kompaniyasi muvaffaqiyatli ishlayotgani qayd etildi. Toshkent viloyatida texnopark qurish va unga Xitoyning yirik kompaniyalarini jalb qilish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Prezidentimiz forum qatnashchilari bilan o'tkazgan to'g'ridan-to'g'ri muloqotlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojining ko'pgina qirralarini qamrab oldi. O'zaro manfaatli takliflar, ko'pgina davlatlarning ishbiarmon doiralari vakillarini yangi O'zbekistonda barpo etishda qatnashishga chorlov, albatta, e'tiborsiz qolmadi. Bu esa shundan dalolat beradiki, investitsiya forumi ishtirokchilari o'z vataniga qaytgach, nafaqat biznes uchun bizning mamlakatda mavjud bo'lgan imkoniyatlar haqida ko'proq biladi, balki shu imkoniyatlardan foydalanish yo'larini ham izlay boshlaydi. O'zbekistonlik sheriklar bilan endi birinchi marta hamkorlik qilishga bel bog'laganlar, masalan, istiqbolli loyihalarga pul tikish yoki unda qatnashishni ko'zlashi mumkin. Boshqalari esa o'z mahsuloti, xizmatlari va texnologiyalari bilan mustaqil ravishda O'zbekiston bozoriga chiqish haqida o'ylab qoladi. Mamlakatimizda ishlab chiqarishga ega bo'lganlar esa o'z biznesini yanada kengaytirish va yangi loyihalar bo'yicha qaror qabul qiladi.


Hamkorlikni kengaytirishdan hamma manfaatdor — xorijiy sarmoyadorlar, kompaniyalar, eng muhim, mamlakatimiz iqtisodiyoti. Zero, bu Taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlardan biridir.

Jadal sur'at bilan taraqqiyot sari

Bunday maqsadlar esa strategiyada yuzta. Ular aniq-tiniq belgilab berilgan. Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisi doirasida, Prezident nutqida va tadbir ishtirokchilari bilan o'tkazgan uchrashuvlarida katta e'tibor ana shu maqsadlarga erishish bo'yicha strategik vazifalarga qaratildi. Taktik qarorlar esa qator shu'ba majlislari va davra suhbatlarida muhokama etildi. Ularda qonunchilikni takomillashtirish, bank sektori va iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarini transformatsiya qilishdan boshlab, to ekologiya, madaniy merosni asrash va sun'iy intellektdan foydalanish masalalarigacha ko'rib chiqildi.

Shu'ba majlislari va davra suhbatlari shunisi bilan ahamiyatli, ularda forum qatnashchilari nafaqat mamlakatimizdagi ahvol bo'yicha o'z fikrlari bilan bo'lishib, takliflarini berdi, balki ko'zlangan maqsadlarga erishish jarayonida faol qatnashishga tayyorliklarini ham bildirdi.

Forum doirasida O'zbekiston poytaxtini mintaqaning yetakchi moliyaviy markaziga,



xalqaro biznes va sarmoyadorlar uchun raqobatbardosh investitsiyaviy markazga aylantirish maqsadida Toshkentda Xalqaro moliyaviy markaz tashkil etish masalasi muhokama qilindi. Shu masalaga bag'ishlangan davra suhbatida uning ishtirokchilari Toshkent shahrida investitorlarni jalb etish bo'yicha afzalliklari, O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligi omillari va uni yanada oshirish uchun zarur bo'lgan shartlar haqida o'zaro fikr almashildi.

Masalan, Xalqaro moliyaviy korporatsiya tahliliy boshqarmasi direktori Alyona Dolgovaning aytib o'tishicha, Toshkentning xalqaro moliyaviy markaz bo'lishi uchun uchta asosiy "ustun" bor. Birinchidan, bu ma'muriy-huquqiy infratuzilma bo'lib, u investorlar uchun juda muhim. Investorlarga an'anaviy moliyaviy uslublar va mahsulotlar uchun keng imkoniyat berilishi ham — hal qiluvchi omil. Shuningdek, mintaqada islom banklarining paydo bo'lishi Toshkent uchun strategik yo'nalish bo'lishi kutilmog'da. Va uchinchi — iqtisodiyotning raqobatbardoshligi. XVf baholashicha, O'zbekistonda YAIMning yillik o'sishi 2030-yilga borib 5 foizdan oshadi. Mamlakat jadal rivojlanmog' va

uning poytaxti global investorlar uchun qulay muhitni yaratadi.

Shu'ba majlisining yana bir mavzusi — "Ozgarishlar va barqarorlik algoritmi: mintaqaviy va global iqtisodiyotning transformatsiyasida sun'iy intellektning roli". Uning qatnashchilari, jumladan, sun'iy intellektning iqtisodiyotga ta'siri mavzusini muhokama qildi. Sun'iy intellektning jarayonlarni optimallashtirish, vazifalarni avtomatlashtirish va qimmatli axborotlarni olish bo'yicha ahamiyati barqaror rivojlanish va innovatsiyalar uchun o'ta muhim. Shu jihatni e'tirof etgan ishtirokchilar yaqin kelajakda sun'iy intellekt tufayli yuz beradigan ozgarishlarning ahamiyatini ta'kidladi va taraqqiyotni ta'minlash uchun mazkur ozgarishlarga tayyor bo'lish lozim, degan xulosaga keldi. Masalan, "Citigroup" investitsiyaviy

“ Prezidentimiz forum qatnashchilari bilan o'tkazgan to'g'ridan-to'g'ri muloqotlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojining ko'pgina qirralarini qamrab oldi. O'zaro manfaatli takliflar, ko'pgina davlatlarning ishbiarmon doiralari vakillarini yangi O'zbekistonda barpo etishda qatnashishga chorlov, albatta, e'tiborsiz qolmadi. ”

texnopark qurilishi bo'yicha loyiha ishlari boshlangani ham katta qiziqish uyg'otdi. Bu yerda sohaviy klastrlar va maydoni yuz gektardan iborat logistika markazi ham barpo etiladi.

Jizzax viloyati vakillari xorijiy sarmoyadorlarni qiymatli 30 million dollarlik loyihani ishga tushirish imkoniyatidan foydalanishga taklif qildi. Unda tog' jinslaridan qurilish uchun plitalar ishlab chiqarish, shuningdek, "Zomin Farm" iqtisodiy sanoat zonasida 20 million dollarlik bir martalik tibbiyot buyumlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish belgilangan. Buxoro viloyatida noruda materiallar manbalarining katta miqdori mavjud bo'lib, xorijiy sarmoyadorlar bu yerda qurilish materiallari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi mumkin. Andijon viloyati vakillari ham qiziqarli takliflarni kiritdi. Jumladan, viloyat har yili 55 tonna shokoladni o'n millionlab dollarga sotib oladi. Xo'sh, ushbu talabni hisobga olgan holda, sarmoyadorlar shu yerning o'zida shokolad ishlab chiqarishni yo'lga qo'ysa bo'lmaydimi? Yana shu viloyatning o'zida sopol buyumlar, kaolin xomashyosidan avtomobil ehtiyot qismlari ishlab chiqarishga ehtiyoj bor va bu ham sarmoyadorlarni o'ziga jalb qiladi. Shu va boshqa o'zaro manfaatli takliflar e'tibordan chetda qolmasligiga ishonch bildirildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, shuningdek, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarining investitsiyaviy salohiyati taqdimoti chog'ida ham xorijiy sarmoyadorlar uchun ko'pgina takliflar tushdi.

Investorlar o'z mablag'ini joylashtirish uchun "o'sish nuqtalari" forum qatnashchilariga nafaqat O'zbekistonning viloyatlarida, balki Markaziy Osiyo mintaqasi doirasida ham taklif etildi. Masalan, qo'shni Qirg'iziston va Tojikistonda gidroelektr stansiyalarini qurish. Yoki Markaziy Osiyo davlatlari uchun Hind okeaniga va arzon dengiz yo'llariga chiqish imkonini beradigan O'zbekistonda Afg'oniston va Pokiston orqali o'tuvchi temir yo'l qurish. Ushbu temir yo'l yuk tashish muddatini 35 kundan 5 kungacha qisqartiradi, tashuvlarning narxi esa kamida 40 foizga pasayadi. Yana bir ulkan mintaqaviy loyiha Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'lini qurish, uni ro'yobga chiqarish ham vaqtni tejab, yuq tashuvlarining muddati va narxini qisqartiradi.

"UCC Holding" bosh direktori Mehmet Arif Ozoqning fikricha, O'zbekiston — juda chiqq mamlakat va bu yerda investorlar uchun do'stona muhit shakllantirilgan. Bu mamlakatning ulkan yutuqi va bunday katta tezlik bilan taraqqiyot sari intilish hayron qoldiradi.

— O'zbekiston juda qisqa muddatda shunday katta natijalarga erishgani faxrlansa arzigulik voqea, — deydi qatartik tadbirkor. — Bu esa mamlakatning xalqaro investorlar uchun jozibadorligini oshiradi va ularning diqqat-e'tiborini o'ziga qaratadi.

Ishonch bilan aytilish mumkinki, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan nufuzli tadbir yangi O'zbekistonning investitsiyaviy salohiyatini muvaffaqiyat bilan namoyish etdi. Shubhasiz, endilikda ko'plab xorijiy investorlarning sarmoyalari geografiasida mamlakatimiz munosib o'rin egallaydi. Bu esa yurtimiz taraqqiyotiga, xalqimizning turmush darajasi, farovonligi oshishiga xizmat qiladi.

O'kir RAHMAT.

So'z — ishtirokchilarga

Madina BARATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, do'stlik guruhi a'zosi:

— O'zbek va tojik xalqlarini umumiy tarix, o'xshash ma'naviy qadriyatlar bog'lab turadi. Bugungi kunda davlatlarimiz o'rtasidagi strategik hamkorlik yuksak darajaga ko'tarilgan. Xususan, so'nggi yillarda ikki mamlakat o'rtasida parlamentlararo munosabatlari ancha foydali.



Ishonamizki, mazkur uchrashuv parlamentlarimiz o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, do'stlik va yaqin qo'shnihilik munosabatlari chuqurlashtirish, amaliy aloqalar samaradorligini yanada oshirish hamda qonun ijodkorligi sohasida o'zaro tajriba almashish, bu boradagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ahmadjon G'ANIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, do'stlik guruhi a'zosi:

— Qonunchilik palatasida bo'lib o'tgan ikki mamlakat do'stlik guruhlarining uyilishida parlamentlar o'rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish istiqbollari keng muhokama qilindi. Amaliy hamkorlikni har tomonlama mustahkamlashda parlamentlarning rolini kuchaytirish, bu borada delegatsiyalar almashinuvini doimiy yo'lga qo'yish, parlamentlarning qonun ijodkorligi va nazorat-tahlil faoliyati yuzasidan o'zaro tajriba almashish lozimligiga alohida e'tibor qaratildi.



Shu nuqtayi nazardan aytganda, ushbu uchrashuv Tojikiston parlamenti bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash, o'zaro muloqotlarni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilishi, shubhasiz.

"Xalq so'zi".

Diqqat markazida — islohotlar samarasi

Nukus shahrida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengasining qirg to'qqizinchi sessiyasi bo'lib o'tdi.

Mahalliy Kengaslarda

Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumat a'zolari, tegishli soha rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Tadbirida "Qoraqalpog'iston Respublikasining

ayrim qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Shuningdek, sessiyada aholi reproductiv salomatligini mustahkamlash,

onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, sog'lom bola tug'ilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning Qoraqalpog'iston Respublikasi mintaqaviy vakilining 2023-yilgi faoliyati, Prezidentimizning 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli yo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

Mo'tadil iqlim — aholi salomatligi garovi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi tomonidan 15-may — Xalqaro iqlim kuniga bag'ishlangan davra suhbatini tashkil etildi.

Davra suhbatini

Quyidagi palata deputatlari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi vakillari, Fanlar akademiyasi ilmiy xodimlari hamda jurnalistlar ishtirok etgan tadbirida bugungi kunda tabiatni asrab qolish insoniyat olidida turgan eng global muammolardan biri ekanini, global isish, tabiiy ofatlar, atmosfera qatlamida ozon miqdorining oshishi

insonlarning hayot xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani haqida so'z yuritildi.

Qayd etilganidek, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq o'sib borayotgan global tahdidlarga kompleks javob qaytarish maqsadida BMning Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimi qabul qilingan. Yangi kelishuvga muvofiq, taraqqiy etgan davlatlar bilan bir qatorda, rivojlanayotgan davlatlar ham

atmosfera tashlamalar miqdorini kamaytirish majburiyatini olishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston ham mazkur bitimni ratifikatsiya qilib, 2030-yilga borib "issiqxona gazlari" solishtirma tashlamalarini 2010-yildagi darajaga nisbatan yalpi ichki mahsulot birligiga 35 foiz qisqartirish majburiyatini oldi. Xalqaro majburiyatni ta'minlash, iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish borasida yurtimizda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sohaga oid bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi, "Gidrometeorologiya

faoliyati to'g'risida"gi qonunlar hamda 2030-yilgacha bo'lgan davra O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, 2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi shular jumlasidandir.

Tadbirida so'z olganlar mamlakatimizda iqlim o'zgarishlariga moslashish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar, jumladan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 million tur daraxt va buta ko'chatlarining ekilishi yurtimiz iqlimini mo'tadil saqlash bilan birga, pirovardida ona tabiatni asrash, aholi salomatligini

yaخشilashga xizmat qilayotganini alohida ta'kidlandi.

Davra suhbatida iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish uchun qator chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish, xususan, "issiqxona gazlari"ni kamaytirish, ishlab chiqarishda va transportda ekologik toza texnologiyalarni qo'llash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, suv tejavchi texnologiyalarni tatbiq etish, "aqli" qishloq xo'jaligi tamoyillarini joriy qilish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha bir qator takliflar berildi.

Yakunda bildirilgan takliflar asosida tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

"Xalq so'zi".

Italiyada "Macfrut — 2024" xalqaro meva-sabzavotchilik ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekistonda yetishtirilgan mevalarning sifati hamda ta'mi alohida e'tirof etildi.

San'atimizning so'nmas yulduzi

O'zbek xalqining insoniyat osmonini charog'on etib turgan yulduzlari ko'p. Shulardan biri — Botir Zokirov. Xonanda kuylagan o'lmas taronalari uning nomini mangu qilgan. Shu bois yurtimizda u katta hurmat-ehtirom bilan eslanadi. Ayniqsa, oxirgi yillarda unga davlat darajasida e'tibor qaratilayotgani diqqatga sazovor.

Sog'inch

Xususan, 2020-yil 2-dekabrda "O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini qeng nishonlash to'g'risida"gi Prezident qarori navbatdagi muhim qadamlardan bo'ldi. Mazkur hujjat doirasida salmoqli ishlar amalga oshirildi va bu sa'y-harakatlar izchil davom ettirilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov xonanda, rassom, adabiyotshunos, aktyor, shoir va yozuvchi sifatida elu yurt hurmatini qozongan. O'zbek xalq o'g'li, o'zi yaratgan aytimlarni turli janrlarda kuylashdan tashqari, xorij shlyagerlarini o'sha tillarda maromiga yetkazib ijro qilgan. Bu borada san'atkor bir qator chet tillarni mukammal darajada bilishi qo'l kelgan.

Xonanda 1956-yil o'zi tashkil etgan "Yoshlik" ansamblida faoliyat olib boradi. Uning sohir ovozi bir bor eshitgan odam, albatta, mahliyo bo'lib qolar, qo'shiqlariga o'zgacha mehr qo'yar edi. Bu esa uning qablarni larzaga soluvchi betakror ovozi bilan bog'liq.

Botir Zokirov Moskva shahrida 1957-yilda bo'lib o'tgan xalqaro yoshlar va talabalar festivalida "Arab tangosi" qo'shig'i bilan qatnashib, katta muvaffaqiyat qozongan yoshi ulug' yurtdoshlarimiz hali-hanuz yaxshi eslashadi. Haqiqatan ham, bu

ajoyib voqea bo'lgandi. Gap shundaki, plastinkaga tushirilgan bu qo'shiq yashin tezligida dunyo bo'ylab tarqalib ketadi hamda millionlab qablarni zabt etadi.

Betakror san'atkor 1972-yili Toshkent shahrida Sharqdagi ilk Myuzik-xoll (varyete)ni yaratib, uni boshqargan, uning rejissyori, badiiy rahbari va yetakchi xonandasi bo'lgan. E'tiborlisi, u Sharq folklorini zamonaviy estradaga uyg'unlashtira olgan edi.

Yoshligidan og'ir betob bo'lgan va go'yoki oz muddat ichida o'z maqsadlarini bajarishga ulgurishga shoshgandek taassurot qoldiradigan va iqtidor egasi 1985-yil 23-yanvar kuni vafot etadi. U Chig'atoy qabristonida mangu qo'nim topgan.

Botir Zokirov mustaqillik yillarida "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlandi.

Ijodkorning doimiy ravishda qoralab borgan kundaliklari ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

"Men o'z kundaligimni ajoyib yoshligimning eng baxtiyor kunlaridan — bolaligimning ilk orzulari ro'yogba chiqqan kunidan boshlagim keladi..."

"O'sha kuni men Toshkent davlat konservatoriyasi vokal fakulteti tayyorlov bo'limiga muvaffaqiyatli imtihon topshirdim. O'sha daqiqalarda men sahnada turib hassos va talabchan

tinglovchilar qarshisida kechirgan cheksiz hayajonlarim, iztiroblarim kuylashim bilanoq tumanday tarqab ketdi".

15-yanvar: "Afsus! Operatsiyani jumaga qoldirishdi. Salom, yana bir ko'ngilsizlik! Kechagi rentgen surati yomon chiqibdi. Qimirlamay yotishimni qattiq tayinlashdi. Qo'shiqni yozish esa chippakka chiqyapti. Tinimsiz mashg'ulotlar hayf ketdi. Mana, senga quvonch uchun mukofot."

O'pkadagi kichik teshikcha katta bo'lib qolibdi. Bu so'nggi mashg'ulotlar oqibati. Baribir yangi qo'shiqni yozib olmayapmiz. Bunga Ikrom aka emas, men aybdorman. Chunki biz bekorga hayajonlandik, xavotirlandik. Qo'shiq yozilmasa mayli. Axir men nimalarni istamayman? La'nati kasal menga bo'yusunmaydi. Lekin uni o'z ixtiyoriga qo'ymasligim kerak."

Xonanda haqida zamondoshlari bitgan xotiralar ham diqqatga sazovor. Masalan, O'zbekiston Respublikasi xalq artisti Nasiba Abdullayeva shunday eslaydi: "Botir aka bilan tanishuvimiz tasodifiy bo'lgan, buni taqdirning menga bir mukofoti ham deyish mumkin. Taqdir in'omini qarang, 1980-yilda Toshkentda bo'lib o'tadigan Ozarbayjon madaniyati va san'at kunlari yakuniga bag'ishlangan konsert dasturiga meniyam taklif etishdi. Bundan shunchalik sevindimki, ta'riflashim qiyin. Axir bu palla qo'shiqlarni tinglab, timsolli qilib aytganda, qo'shiqlarni hidlab to'yamaydigan yoshlik davrim edi-da. Shunday qilib, Toshkentga keldik. Bu yerda konsertga tayyorlandik. Men ikki ozarcha qo'shiq aytishim kerak edi, keyin reja o'zgarib, bitta aytadigan



bo'ldim. Bitta qo'shiq bo'lsayam, qattiq tayyorgarlik ko'rishga to'g'ri keldi...

Shu kunlardan birida zot eshigi qiya ochilib, kimdir kuzatayotganini his etdim. Bir zungma o'sha yoqqa ko'z tashladim, keyin turgan joyimda qotib qoldim. Chunki meni kuzatayotgan buyuk san'atkor — Botir akaning o'zi edi. Bir yoqdan konsert mas'uliyati, ikkinchi yoqdan Botir akaning susti bosib, qotib qoldim..."

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Gavhar Zokirova xotiralari yanada qiziqarli: "Botir aka bilan birinchi marta uchrashganim g'alati bo'lgan. Jamshid akam bilan turmush qurishga qaror qilgan paytimizda uyimizga Botir aka sovg'i bo'lib keldi, ana shunda u kishini birinchi marta ko'rganman.

Haliyam esimda, otam rahmatlarga sovg'i kelishi aytildiganday, ammo kim kelishi aytilmagandi. Botir akani ko'rib, otam qattiq hayajonlangan. Shu hayajon va hayrat bilan: "Voy, voy, uya kim keldi, Botir Zokirov keldimi? Botirjon, o'zingizmisiz, rostdan ham o'zingizmi?"

deganlari haliyam yodimda.

Botir aka kulib turib: "Assalomu aleykum, Akmal aka!" dedi. Bundan otamning hayajoni yanayam oshdi: "Mening ismimniyam bilasizmi, ismimni kim aytdi sizga?" dedi.

Botir aka: "Albatta, bilaman, Gavhar degan qizingiz borliginiyam bilaman" dedi.

Salom-alikdan keyin Botir aka otamga: "Gavharxon mening ukam bilan birga institutda o'qiydi. Men sovg'i bo'lib keldim" dedi.

Otam: "E, qizim aktrisa bo'laman, deyaotmi?" deb yanayam hayajonlandi.

Botir aka: "Ha, shu, otam rozi bo'lmaydi, deb bекitishgan edi, bundan ayolingizning xabari bor. Jamshid degan yaxshi ukam bor, bular ikkisi oila qurishga ahd qilishibdi, mana, sovg'ilikka, qulchilikka keldim" dedi.

Otam o'shanda Karim Zokirovdek odam bilan quda bo'lamanmi, deb rosa suyuqandi..."

Xonanda haqidagi qiziqarli faktlar: Botir Zokirov 23 yoshida mashhurlikka erishib bo'lgan. "Arab tangosi" nomi bilan tanilgan qo'shiq uni ko'pgina davlatlarda mashhur qilgan, ta'bir joiz bo'lsa, bu uning "tashrif qog'ozi"ga aylangan edi.

Xonanda 29 yoshida O'zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo'lgan.

U Parijdagi "Olimpiya" nomli nufuzli konsert zalida qo'shiq ijro etgan yagona o'zbekistonlik xonandadir.

Buyuk iste'dod egasi 20 yil davomida bitta o'pkasi bilan qo'shiq aytgan.

Darhaqiqat, san'atimizning so'nmas yulduzi Botir Zokirov qablarda va o'zi tomonidan suvib ijro etilgan qo'shiqlarida barhayot. Bunday barhayotlik har kimga ham nasib etavermaydi.

Zokir XUDOYSHUKUROV ("Xalq so'zi").

QISQA SATRLARDA

Ayollar va gender tenglik

Poytaxtimizda "Ayollar yetakchiligi rag'batlantirish" mavzuida seminar-trening tashkil etildi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan YXHning mamlakatimizdagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi bilan hamkorlikda uyushtirilgan tadbirda ayollar yetakchiligi targ'ib qilish borasida xalqaro hamda milliy ekspertlar o'z tajribalari bilan o'rtoqlashdi. Ular dunyoning turli mintaqalarida yetakchilik rollarini egallashda ayollar duch keladigan asosiy muammo va qiyinchiliklarni tahlil etgan holda, bu boradagi eng maqbul yechimlarni ilgari surishdi.

Talabalar uchun zamonaviy laboratoriya

"Issiqlik elektr stansiyalari" AJ Toshkent davlat texnika universiteti bilan o'zaro hamkorlikda ushbu ta'lim maskanining issiqlik energetikasi fakulteti Sanoat issiqlik energetikasi kafedrasida "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ o'quv laboratoriyasini ochdi.

Uning ochilish marosimida qayd etilganidek, o'quv-laboratoriya xonasidagi mavjud energoquchilarning maketi to'liq ta'mirdan chiqarildi. Talabalarga qulaylik yaratish maqsadida xona interfaol doska va sovitkich bilan jihozlangan.

Jomboyda "CCI" zavodi ochildi

Samarqandda ishlab chiqarish korxonalarini soni yana bittaga oshdi. Gap shundaki, "Urgut" erkin iqtisodiy zonasini uchun Jomboy tumanida ajratilgan hududda "Coca-Cola" ichimligi ishlab chiqaruvchi "CCI" zavodi bunyod etildi.



Qisqa vaqt — o'n oyda 18,5 gektar maydonda qurilgan zavodning umumiy loyiha qiymati 112 million AQSH dollarini tashkil qiladi. Ushbu mablag'ning 100 million dollari xorijiy investitsiya hisoblanadi. Yiliga 280 million litr ichimlik ishlab chiqarish quvvatiga ega korxonada 200 ta ish o'rni yaratildi. Mahsulot ichki bozorga chiqarilishi hamda MDH mamlakatlariga eksport qilinishi ko'zda tutilgan.

Yoshlar yetakchilari tajriba oshirmoqda

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi Yoshlar oromogida Qashqadaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlaridagi mahallalarda faoliyat olib borayotgan 200 dan ortiq yoshlar yetakchisi ishtirokida amaliy seminar o'tkazilmoqda.

Seminar ishida yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy qilish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etishda yetakchilarning vazifalarini belgilab olishga e'tibor qaratilayotir. Yakunda yoshlar yetakchilaridan zaxira kadrlarni shakllantirish ham rejalashtirilgan.

"Xalq so'zi".

ZOMINDA MAQOM SADOOLARI YANGRAYDI

Shu yilning 27 — 30-iyun kunlari Zomin tumanida Xalqaro maqom san'ati anjumani o'tkaziladi. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan san'atkorlar qatnashadi.

Taraddud

Ma'lumki, 2019-yil 26-fevralda "Il xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoyishi qabul qilingan edi. Unga ko'ra Xalqaro maqom san'ati anjumanini

ikkinchi marta 2020-yil sentabr oyining birinchi yarmida o'tkazish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi hamda Qashqadaryo viloyati hokimligining taklifi ma'qullangan, biroq pandemiya tufayli mazkur anjumann o'tkazish boshqa muddatga qoldirilgandi.

Said DONISHEV ("Xalq so'zi").

Qaror va ijro

Ham jismonan, ham ruhan tetiklik manbai

Mamlakatimizda yosh avlod — kelajagimiz bunyodkorlariga alohida e'tibor qaratilmoqda, ularni har jihatdan sog'lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi.

Prezidentimizning 2022-yil 20-iyundagi "Dzyudo sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida aholi o'rtasida dzyudoning olimpiya sport turi sifatida ommaviyligini oshirish, yoshlar orasida iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish, milliy terma jamoalarning nufuzli sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lami ishlar davom etmoqda. Mazkur qarorda maktabgacha ta'lim muassasalarida "Maktabgacha dzyudo" loyihasini amalga oshirish belgilangan.

Nukus shahrida 2022-yilda qurilib foydalanishga topshirilgan 120 o'rinni 60-maktabgacha ta'lim muassasasida "Maktabgacha dzyudo" to'garagi tashkil etilgan bo'lib, unda yetakchi murabbiylar faoliyat olib bormoqda. Asosiy maqsad bolalarda sportning dzyudo turiga qiziqishini oshirish hamda jang san'atining ushbu turi bo'yicha boshlang'ich ko'nikmalarni



shakllantirishdan iborat.

Aslida ham, kimki sportga oshno bo'lsa, o'z salomatligi uchun doimo qayg'ursa, u albatta, sog'lom bo'ladi. Shu bois bolajonlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish maqsadida muassasada dzyudodan tashqari, gimnastika, shashka, rasm chizish va boshqa bir necha to'garaklar

o'rsatmoqda. Hozirgi kunga kelib dzyudo to'garagida 20 nafar tarbiyalanuvchi muntazam shug'ullanib kelmoqda. Kelajakda ular orasidan Osiyo, jahon va Olimpiada chempionlari yetishib chiqishiga ishonamiz.

Dzyudo yakka kurash sport turi ommaviyligi bo'yicha dunyoda futboldan keyingi o'rinda bo'lib, ilk bor 1964-yili Tokioda o'tgan XVII yozgi Olimpiada dzyudo bo'yicha g'olib va sovrindorlar aniqlab kelinadi.

Bugungi kunda dunyo bo'yicha 30 milliondan ziyod kishilar dzyudo bilan professional tarzda shug'ullanadi. Ularning 9 millioniga yaqini dzyudo vatani — Yaponiyada istiqomat qiladi. Ikki yuzga yaqin davlatlar Xalqaro dzyudo federatsiyasi (IJF)ning to'laqonli a'zosi hisoblanadi.

Darhaqiqat, dzyudochilarimizning turli nufuzli musobaqalarda erishayotgan ulkan natijalarining maqtansa arzigulik salmog'i bor. Mamlakatimiz mustaqillikka

erishgandan so'ng O'zbekiston sport delegatsiyasiga ilk medalni ham aynan dzyudochilarimiz taqdim etgan. "Atlanta — 96" Olimpiadasida Armen Bagdasarov kumush medalga sazovor bo'lgan bo'lsa, "Pekin — 2008"da Abdulla Tangriyev kumush, 2008, 2012, 2016-yillardagi Olimpiada o'yinlarida Rishod Sobirov uchta bronza medalini qo'lga kiritdi. Diyorbek O'razboyev ham 2016-yilgi Rio Olimpiadasida bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Umuman, yurtimizda yoshlarimizning har tomonlama sog'lom kamol topishi, zamonaviy bilimlarni egallashi, o'z iqtidor va qobiliyatini ro'yogba chiqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Bunda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan Farmon va qarorlar sport sohasidagi faoliyatimizni amalga oshirishda dasturlamal bo'layotir.

Bu farzandlarimizning jismoniy tarbiya va sportga qiziqishini yanada oshirish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, o'g'il-qizlarimizni jismonan sog'lom, ruhan tetik, irodasi mustahkam hamda ularning ongida vatanparvarlik, yurtga sadoqat, g'alabaga intilish fazilatlarini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Venera UTESHOVA, Nukus shahridagi 60-maktabgacha ta'lim muassasasi direktori.

Onajonim, tabiat

Sarchashmaning zilol chashmalari

Bu qishloq Shahrisabz tumanining olis va tog'li hududlaridan biri hisoblanadi. Tuman markazidan 70 kilometr uzoqlikda, Hisor tog'li tizimlari bag'rinda joylashgan so'lim maskan o'zining betakror tabiati, zilol chashmalari, an'ana va qadriyatlar bilan tilga tushgan.

Sarchashmaga borish uchun Miraki shaharchasidan so'ng "Hisorak" suv ombori, keyin Oqsuv daryosi bo'ylab ancha mashaqqatli tog' yo'lini bosib o'tish kerak. Yog'in-sochinli kunlarda esa bu yo'llardan "Niva", "UAZ" va boshqa shu kabi maxsus mashinalarsiz harakatlanish deyarli imkonsiz.

— Avvallari qishlog'imiz qish faslida tashqi dunyodan uzilib qoldi, — deydi "Sarchashma" MFY yoshlar yetakchisi Jo'rabek Chorshanbiyev. — Biroq so'nggi yillarda mamlakatimizda aholining farovon turmush tarzini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar bizning chekka qishlog'imizda ham o'z aksini topmoqda. O'tgan yili mahallamizga keladigan yo'lining asosiy qismiga asfalt qoplama yotqizildi, ayni paytda to'rt kilometr atrofida nosoz yo'l qolgan. Kunlar isishi bilan bu yo'l ham tuzatilgach, har qanday avtomobilda harakatlanish mumkin bo'ladi.

Mahallada bugungi kunda 5 mingdan ziyod aholi istiqomat qilmoqda. Hududda ikkita davlat maktabgacha ta'lim muassasasi, bitta maktab bor. O'quvchilarning aksariyati maktabga so'qmoq yo'llar osha uzoq masofa bosib keladi. Biroq qiyin sharoitga qaramay o'quvchilarda ilm olishga bo'lgan qiziqish kuchli.

— Shu vaqtga qadar qishlog'imizdan bir akademik, bir professor, o'n nafar fan nomzodi yetishib chiqqan, — deydi mahalladagi 57-maktab direktori Abduvahob Berdiyev. — Shuningdek, respublikamizning turli hududlarida mas'ul lavozimlarda ishlayotgan qishloqdoshlarimiz ko'p. Ularning muvaffaqiyati yoshlarimizga doimo shijoat bag'ishlaydi. O'quvchilarimizda ilm olishga, otanonalarda farzandini o'qitishga intilish kuchli.

Qishloq odamlarining aytishicha, bu yerda qish oktabrdan boshlanib, olti oydan oshiq davom etadi. Aprelning o'rtalariga kelib sovuq havo chekina boshlagach, barcha xonadonlar darhol tomorqa yerlariga ekin ekishga kirishadi. Ko'pchilik kartoshka yetishtirishning hadisini olgan. Aholining asosiy daromad manbai ham kartoshkachilik hisobidan. Shuningdek, so'nggi yillarda sarchashmaliklar bog'dorchilikda ham maqtansa arzigulik natijalarga erishmoqda.

Jahongir BOYMURODOV ("Xalq so'zi").

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati, Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hamkorligida "Jadidlar orzusi" spektakli sahnalashtirildi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yublab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahilaladi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islov Karimov ko'chasi, 55-uy. Nabatchi muharrir N. Ostonov. Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.15 Topshirildi — 00.50 1 2 3 4 5 6